

ANDIJON VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil
yanvar-dekabr*



ANDIJON VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2023- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **3 322,8** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **69,2** ming kishiga yoki **102,1 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 734,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **52,2 %**), qishloq aholisi soni **1 588,5** ming kishi (**47,8 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3 322,8 ^{ming}
kishi

Tabiiy o'sish

+69,2 ^{ming}
kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



52,2%

Qishloq



47,8%


Aholining tabiiy harakati, kishi

	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2021- yil	2022- yil	o'sish, kamayish, +,-	2021- yil	2022- yil
Tug'ilganlar	84 664	86 481	1 817	26,3	26,3
O'lganlar	16 409	15 427	-982	5,1	4,7
Nikohlar	3 945	25 867	-873	8,3	7,9
Ajralishlar	3 945	5 019	1 074	1,2	1,5
Ko'chib kelganlar	6 965	6 585	-380	2,2	2,0
Ko'chib ketganlar	9 796	8 395	-1 401	3,0	2,6

Andijon viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar 2022- yil yanvar-dekabr




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni 2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyatda doimiy aholisi sonining 32,3 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 56,3 % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 11,4 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi 2022- yil 1- yanvar holatiga



2022- yil 1- yanvar holatiga Andijon viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **194,3 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **58,2 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **178,0 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **62,8 ming kishini** tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1- yanvar holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1-yanvar holatiga, kishi

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	3 253 528	3 322 772	102,1
shaharlar:			
Andijon	458 506	468 049	102,1
Xonobod	43 962	45 021	102,4
tumanlar:			
Oltinko'l	184 693	189 044	102,4
Andijon	273 801	280 041	102,3
Baliqchi	207 089	211 314	102,0
Bo'ston	74 721	76 237	102,0
Buloqboshi	147 000	149 918	102,0
Jalaquduq	191 466	195 184	101,9
Izboskan	245 595	250 333	101,9
Ulug'nor	61 831	62 970	101,8
Qo'rg'ontepa	222 111	226 071	101,8
Asaka	339 971	347 503	102,2
Marhamat	178 766	182 498	102,1
Shahrixon	309 993	317 210	102,3
Paxtaobod	199 876	204 202	102,2
Xo'jaobod	114 147	117 177	102,7

Andijon viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1- dekabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Andijon viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha **7,7** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,1** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **7,6** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahrida **71,5** kishi, Xonobod shahrida **19,4 kishi** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Bo'ston tumanida **2,2** kishi, Ulug'nor tumanida **2,3** kishini tashkil etgan.

Andijon viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (%)

2022- yil yanvar-dekabr, kishi



2022- yilning yanvar - dekabr oylarida tug'ilganlar soni 86 481 kishini tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga (84 664 kishi) nisbatan 1 817 taga kamaydi, Shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 26,3 promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan promilleda o'zgarish bo'lmagan.

Tug'ilganlarning taqsimlanishi

Yanvar-Mart

Erkaklar

9 697

Ayollar

9 023



Yanvar-Iyun

Erkaklar

19 744

Ayollar

18 364



Yanvar -Sentabr

Erkaklar

32 870

Ayollar

30 516



Yanvar -Dekabr

Erkaklar

44 739


Ayollar

41 742




O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr, kishi



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **66,6 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **5,9 %** i – o'simtalardan, **4,5 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **4,4 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,5 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,8 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **14,3 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-Mart

Erkaklar **1 918** Ayollar **1 622**



Yanvar-Iyun

Erkaklar **3 802** Ayollar **3 297**



Yanvar -Sentabr

Erkaklar **6 129** Ayollar **5 279**




Yanvar -Dekabr

Erkaklar **8 353** Ayollar **7 074**




Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi



2022- yil yanvar – dekabr oylarida 15 427 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi


Yanvar-Mart

Shahar
2 223

Qishloq
2 298


Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-dekabr, birlik



■ Nikoh, birlik

Nikoh tuzish koeffitsientining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sishi Shahrixon tumanida (0,2 promillega), Paxtaobod (0,1 promillega) kuzatildi.

Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayishi Qo'rgontepa tumanida (1,0 promillega), Marhamat tumanlari 0,8 promillega) va Baliqchi tumani (0,6 promillega) kuzatildi.

Yanvar-Iyun

Shahar
4 699

Qishloq
4 290


Yanvar-Sentabr

Shahar
8 959


Qishloq
7 443


Yanvar-Sentabr

Shahar
14 538

Qishloq
11 329


NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi


Yanvar-Mart

Shahar
778

Qishloq
461


Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, birlik



■ Ajrim, birlik ■ Ajrim koeffitsiyenti, promille

Yanvar-Iyun

Shahar
1 612

Qishloq
915


Yanvar-Sentabr

Shahar
2 335

Qishloq
1 338


Yanvar-Dekabr


Shahar
3 250

Qishloq
1 769


2022- yil yanvar-dekabr oylarida **5 019** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,5** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida **1,2** promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr



2022- yil yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **47,8 %** i farzandsiz, **38,4 %** i bitta farzand bilan va **13,8 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(yanvar - dekabr)

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosı	
	2021- yil	2022- yil	2021- yil	2022- yil	2021- yil	2022- yil
Viloyat bo'yicha	6 965	6 585	9 796	8 395	-2 831	-1 810
<i>shaharlar:</i>						
Andijon	1 536	1 731	2 645	2 175	-1 109	-444
Xonobod	219	265	160	166	59	99
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'l	664	586	548	421	116	165
Andijon	1 498	1 136	916	917	582	219
Baliqchi	319	266	565	365	-246	-99
Bo'ston	192	184	178	176	14	8
Buloqboshi	254	126	374	391	-120	-265
Jalaquduq	366	255	549	537	-183	-282
Izboskan	46	61	675	552	-629	-491
Ulug'nor	113	31	219	145	-106	-114
Qo'rg'ontepa	338	308	683	561	-345	-253
Asaka	162	313	527	519	-365	-206
Marhamat	216	208	414	340	-198	-132
Shahrixon	171	184	603	495	-432	-311
Paxtaobod	332	268	372	347	-40	-79
Xo'jaobod	539	663	368	288	171	375

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 74 228-30-54